



ZAMONAVIY STEAM YONDASHUVI ZAMON TALABI

Meliboyeva Sojida

O'ktamovna Denov tadbirkorlik va pedagogikainstituti
Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

II bosqich talabasi

meliboyevasojida@gmail.com

Kenjayeva Munira Nabijon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogikainstituti
Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

II bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada STEAM ta'lim tizimi, uning vazifalari, hozirgi kundagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM ta'lim tizimi, STEM ta'lim tizimi, fan, texnologiya, muhandislik, dizayn, kommunikatsiya, ijodkorlik.

Abstract : This article describes the STEAM education system, its tasks and its place today.

Keywords: STEAM education system, STEM education system, science, technology, engineering, design, communication, creativity.

Аннотация: В данной статье описывается система образования STEAM, ее задачи и ее текущая роль.

Ключевые слова: система образования STEAM, система образования STEM, наука, технология, инженерия, дизайн, коммуникация, творчество.

Mamlakat taraqqiyotini rivojlantiradigan yagona yo'l bu ta'limdir. Ta'lim, ilm, fan, madaniyat, ma'rifat ustuvor bo'lgan mamlakat yuksalaveradi. Shuning uchun hozirgi kunda ta'limni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan bo'lib kelmoqda. Ta'lim tizimi isloh qilinmoqda. Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida 2023-yilga „Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili“ deb nom berganlari ham ta'lim tizimining rivojlanishiga, ta'lim sohasida boshlangan ulkan ishlarni izchil davom ettirishga qaratilgan. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 sentyabrda „2018–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida“gi №PQ–3931- son qarorida ta'lim sifatini yaxshilash va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish vazifasi belgilangan. Unga ko'ra ilg'or jahon tajribasiga tayanib, yangi davlat ta'lim standartlari va



umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko'zda tutilgan. ¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoniga ko'ra, innovatsion ta'lim jarayoniga o'tish, zamonaviy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olish, AKT va ta'lim berishning yangi metodlarini joriy etish, dars jarayonini STEAM ta'lim texnologiyasi talablari asosida tashkil etish, STEAM (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, dizayn va matematika) fanlarini o'qitish bo'yicha o'quv kurslaridan o'tgan pedagoglar 2023-yilda 10%, 2030-yilga kelib 50%ga yetishi, yangi kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi vazifalar belgilangan.²

STEAM deganda biz, tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan yo'nalishlarini birlashtirgan yangi ta'lim texnologiyasini tushunamiz.

STEM deganda biz real hayot talablaridan kelib chiqqan holda akademik ilmiy- texnikaviy konsepsiya doirasida integratsiyalashgan holda o'qitishni tushunamiz.

STEAM bu —

S – Science – tabiiy fanlar;

T – technology-texnologiya;

E – engineering-muhandislik;

A – art -san'at;

M – math- matematika.

STEAM o'quv dasturi o'quvchilarni fanlararo va amaliy yondashuv yordamida o'qitish g'oyasiga asoslangan. STEAM beshta fanning har birini alohida-alohida o'rganish o'rniga, ularni bitta ta'lim yo'liga birlashtiradi, ya'ni integratsiyalashgan holda o'qitishni tushunishimiz mumkin.

STEAM XXI asrning innovatsion texnologiyalariga asoslangan yangi o'quv tizimi hisoblanadi, uning asosiy maqsadi bolalarda mustaqil, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Bu an'anaviy maktab ta'lim modelidan tubdan farq qiladigan va ijodiy va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga asoslangan yangi tizim. STEM

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 sentyabrdagi "2018–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi №PQ–3931- son qarori

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni



ta'limi Amerika Qo'shma Shtatlarida America COMPETES qonuni orqali qo'llab-quvvatlandi. Ushbu Qonun STEM ta'limini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, STEM Ta'limining besh yillik rivojlantirish strategik rejasi (2013-2018) ishlab chiqilgan. Ushbu strategiya tabiiy, aniq, muhandislik va matematika fanlari o'zaro integratsiyasi bo'yicha innovatsion o'qitish uslublarini yaratishga qaratilgan. Shundan so'ng AQSh maktablarida STEM ta'limi dasturlari ishlab chiqilib, o'quv jarayonlariga tatbiq etildi. Dunyoda muhandislik rivojlanib borayotgan davlatlar amaliyotiga ko'ra nazariy olingan bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan yangi STEAM yondashuvli ta'limga katta e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin.

STEAM analitik fikrlashni, til qobiliyatini, yozish va o'qish qobiliyatini, axborotni matn holatida qayta ishlash qobiliyati, deduktiv fikrlashni, induktiv fikrlashni, tanqidiy fikrlashni, ijodkorlikni, tasavvurni, his-tuyg'ularni, jodkorlik va innovatsiyalarga tayyorlikni, tanqidiy fikrlashni, tashabbuskorlikni, harakatchanlik va moslashuvchanlikni, o'zaro aloqani, bir vaqtning o'zida bir nechta axborot oqimlarini tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. STEAM ta'lim tizimida o'quvchilar eshitish orqali 40%, o'qish va eshitish orqali 65%, o'qish, eshitish va ko'rish orqali 75%, muammolarni hal qilish uchun ijodiy yondoshush hamda mustaqil bajarish 90% natijaga erishadilar.

Xulosa: STEAM yoshlarning hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan kichik tadqiqotlar va amaliy tajribalar tizimi hisoblanadi.

STEAM yondashuvi bolalarni turli xil tajribalar o'tkazishga, har xil narsalarning modellarini tuzishga, mustaqil ravishda har xil mavzularda musiqa va filmlar yaratishga, o'z mustaqil g'oyalarni haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga va uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarini oson va tez zabt etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 sentyabrdagi "2018–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi №PQ–3931- son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni